



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*Dastlabki ma'lumot  
2024-yil yanvar-avgust*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 72-221-51-26**

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-sentyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 7 104 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 60 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 044 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5 939,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,6 % ga o'sdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 290,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 100,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 095,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 553,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,0 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>5 939,9</b>	<b>108,6</b>
Jizzax sh	1 461,9	110,3
tumanlar :		
Arnasoy	131,9	105,4
Baxmal	571,7	108,7
G'allaorol	707,2	109,4
Sh Rashidov	723,4	112,2
Do'stlik	271,3	105,3
Zomin	692,4	107,3
Zarbdor	280,6	104,3
Mirzacho'l	211,3	106,3
Zafarobod	134,3	104,3
Paxtakor	367,2	107,4
Forish	304,3	107,0
Yangiobod	82,4	105,7


Viloyatning Sh.Rashidov (112,2 %), Jizzax sh (110,3 %), G'allaorol (109,4 %) va Baxmal (108,7 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati  
dinamikasi (yanvar-avgust)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati 2021-yilning mos davriga nisbatan 114,5 % ni tashkil qildi.

2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati,  
oylar kesimida, o'tgan yilning mos oylariga nisbatan (foizda)



2024-yilning yanvar-avgust oyida o'sish sur'ati **108,6 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri 24,5 % bilan 1 461,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Eng quyi ulushni esa, Yangiobod tumani 1,4 % bilan hajmi 82,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm






## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-avgust oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 5 649,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 9,0 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,1 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 290,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 100,9 % ni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,9 % ulushiga to'g'ri keldi.




## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Paxtakor (99,6 %), Mirzacho'l (99,5 %), Forish (99,4 %) va Do'stlik (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Zomin (16,6 %), Jizzax shahri (8,5 %), G'allaorol (3,4 %), Sh.Rashidov (1,7 %) tumanlarida kuzatildi.

4,9 %



95,1 %



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik



ming so'mda

Jizzax shahri

7 427,8

Forish

3 083,2

Arnasoy

2 697,2

Yangiobod

2 757,1

Baxmal

3 335,6

G'allaorol

3 765,7

Sh.Rashidov

2 959,9

Do'stlik

3 865,1

Zomin

3 834,0

Zarbdor

2 950,7

Mirzacho'l

3 799,8

Zafarobod


2 492,3

Paxtakor

4 516,1

2024-yilning 1-sentabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 921,8 ming. so'mni (2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,3%) tashkil qildi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (7 427,8 ming. so'm), Paxtakor (4 516,1 ming. so'm) va Do'stlik (3 865,1 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-avgust), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavil'onlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- avgust oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 553,2</b>	<b>110,1</b>
Jizzax sh	321,2	117,0
tumanlar :		
Arnasoy	1,9	156,9
Baxmal	252,7	113,3
G'allaorol	200,3	122,6
Sh Rashidov	115,0	82,9
Do'stlik	77,0	104,7
Zomin	197,6	104,7
Zarbdor	120,2	100,9
Mirzacho'l	65,9	113,9
Zafarobod	0,0	-
Paxtakor	94,5	115,9
Forish	79,7	121,1
Yangiobod	27,2	110,4


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-avgust)














## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-avgust)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 553,2 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati 11,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 741,8 mlrd. so'mni (125,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 811,4 mlrd so'mni (112,2 %) tashkil etdi.













2024-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 741,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (30,8 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>30,8 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>32,0 %</b></p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>14,0 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>14,4 %</b></p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>9,3 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>9,6 %</b></p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>4,3 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>4,4 %</b></p>	<p><b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>4,3 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>4,4 %</b></p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>4,9 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>5,1 %</b></p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>6,1 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>6,3 %</b></p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>3,4 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>3,5 %</b></p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>14,9 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>15,4 %</b></p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>0,2 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>0,2 %</b></p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>0,3 mlrd. so'm</b></p>  <p><b>0,3 %</b></p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>4,3 mlrd. so'm</b></p> <p><b>4,4 %</b></p>

2024-yilning yanvar-avgust oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 811,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 67,4 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 25,2 mlrd. so'mni, otlar – 1,4 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva  
mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p align="center"><b>35,7 mlrd. so'm</b></p>  <p align="right">38,0 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p align="center"><b>16,7 mlrd. so'm</b></p>  <p align="right">17,7 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p align="center"><b>15,0 mlrd. so'm</b></p>  <p align="right">15,9 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p align="center"><b>21,3 mlrd. so'm</b></p>  <p align="right">22,5 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p align="center"><b>1,4 mlrd. so'm</b></p>  <p align="right">1,5 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p align="center"><b>3,9 mlrd. so'm</b></p>  <p align="right">4,1 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p align="center"><b>0,2 mlrd. so'm</b></p>  <p align="right">0,2 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p align="center"><b>0,1 mlrd. so'm</b></p>  <p align="right">0,1 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p align="center"><b>0,0 mlrd. so'm</b></p>  <p align="right">0,0 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p align="center"><b>0,0 mlrd. so'm</b></p>  <p align="right">0,0%</p>		

2024-yil 1-sentyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 046 tani tashkil etib, ularning barchasi kichik korxonalar va mikrofirmalardir.

	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- avgust oyiga nisbatan o‘shish, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>233,4</b>	<b>111,0</b>
Jizzax sh	84,2	100,3
tumanlar :		
Arnasoy	3,3	100,6
Baxmal	13,8	101,4
G‘allaorol	13,8	101,0
Sh Rashidov	43,8	101,4
Do‘stlik	5,9	101,1
Zomin	38,4	228,8
Zarbdor	10,3	100,0
Mirzacho‘l	4,6	102,8
Zafarobod	1,4	100,9
Paxtakor	6,0	100,7
Forish	6,2	102,0
Yangiobod	1,7	98,1

2024-yilning yanvar-avgust oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 233,4 mlrd. so‘mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 87,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida

	<b>Hajmi, mlrd. so‘m</b>	<b>O‘shish sur‘ati, foizda</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>8 076,3</b>	<b>113,1</b>
Jizzax sh	4 837,1	122,2
tumanlar :		
Arnasoy	2,5	130,3
Baxmal	1 840,1	100,8
G‘allaorol	839,8	10,3 m.
Sh.Rashidov	330,3	32,8
Do‘stlik	2,3	130,3
Zomin	189,9	81,3
Zarbdor	0,3	130,3
Mirzacho‘l	10,2	130,3
Zafarobod	0,7	130,3
Paxtakor	6,7	130,3
Forish	15,2	107,2
Yangiobod	1,2	130,3


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (4 837,1 mlrd. so‘m), Baxmal (1 840,1 mlrd. so‘m) va G‘allaorol (839,8 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi. (mlrd. so'm)



2024-yilning yanvar-avgust oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 8 076,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,1 % ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 5 238,1 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 4,9 m.), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 2 838,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 46,8 %) tashkil qildi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘langan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so‘mda)



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-avgust oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 619,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 54,6 % ga o‘sdi.

## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi hisoblarga ko‘ra 2 299,1 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 52,5 % ga o‘sdi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 87,8 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024-yil 1-sentyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 344 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 22 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 322 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Forish (17,8 m.), Jizzax sh (182,9 %) va G‘allaorol (126,4 %) tumanlarida kuzatildi.

	<b>Jami mlrd. so‘m</b>	<b>2023-yil yanvar- avgust oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 619,0</b>	<b>154,6</b>
Jizzax sh	1 711,6	182,9
tumanlar :		
Arnasoy	36,3	106,8
Baxmal	48,6	31,6
G‘allaorol	75,2	126,4
Sh Rashidov	151,6	102,4
Do‘stlik	31,6	68,0
Zomin	218,5	103,8
Zarbdor	49,6	90,9
Mirzacho‘l	10,1	98,9
Zafarobod	10,5	94,9
Paxtakor	10,4	101,3
Forish	260,3	17,8 m.
Yangiobod	4,7	94,2